



PROFILAKTIKA INSPEKTORINING OZODLIKDAN MAHRUM ETISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLARGA XUKM ETILGAN SHAXSLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATI

Bahodirov Akbarshoh Alisher o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi

316– guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11263169>

Anotatsiya: Ushbu maqolada Profilaktika inspektorining ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga xukm etilgan shaxslar bilan ishlash faoliyatini turlari, tahlili, hozirgi kundagi ushbu muammo davlat siyosati darajasigacha ko'tarilganligi, ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga xukm etilgan shaxslar tomonidan sodir etganligi uchun javobgarlik hamda ularni oldini olish bo'yicha qanday chora – tadbirlar ishlab chiqilib, hozirgi kunda qo'llanilayotganligi xususida

Kalit so'zlar: ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga xukm etilgan shaxslar, ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar, jamoatchilik eshituvi, qo'llab – quvvatlash, ijtimoiy – huquqiy yordam.

Insoniyat tarixining barcha davrlarida ham xalqning tinch va osoyishta xayot kechirishini taminlash davlatning eng ustuvor hamda asosiy vazifasi bo'lib kelgan. Chunki faqat tinchlik va osoyishtalik hukm surgan mamlakatdagina taraqqiyot va rivojlanish bo'ladi, insonning huquq va erkinliklari taminlanadi, odamlar, ayniqsa, yoshlar kelajakka ishonch bilan qaraydilar. Bunday mamlakatda yashaydigan har bir inson o'z orzu-maqсадlariga erishish uchun jamiyatda davlat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlardan maqsadli va samarali foydalanishga harakat qiladi. Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichida eng muxim yo'nalishlaridan biri bu-qonun ustuvorligini va qonuniylikni mustaxkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli ximoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun xal qiluvchi vazifa bo'lib qolmoqda .

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta'minlash, sud-huquq sohasini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Bu o'zgarishlar natijasida respublikamizda demokratik islohotlarni yuqori bosqichga olib chiqish uchun zarur bo'lgan yangi siyosiy muhit vujudga keldi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev






O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2020 yil 24 yanvardagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek: «Og'ir jazo tayinlash kabi allaqachon umrini o'tab bo'lgan tartiblarni bekor qilish vaqti etdi» .

Darhaqiqat, zamon talabi, fuqarolarning huquqiy ongi va dunyoqarashida ilm-fanning yanada ravnaq topishi, yuksak ma'naviyat va madaniyatga intilish mamlakatimizda jinoiy jazolar tizimini liberallashtirish hamda ushbu jazolarning ijro etilishini tizimli tashkil etish orqali jinoyatchilikka qarshi kurash, huquqbuzarliklarni barvaqt profilaktika qilish hamda jinoyat sodir etilishini oldini olishning samarali vositasi ekanligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda jazo o'tayotgan shaxslarni axloqan tuzatish, ular tomonidan jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, mahkumlarning huquqlari, erkinligi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jinoiy jazolarning ijro etish tartibi va shartlarini qo'llashga doir bilim va malakani o'rganishda jinoyatijroiya huquqi fanining o'rni katta. Bu sohada ozodlikdan mahrum etish yoki ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jinoiy jazolarning ijrosini ta'minlash va mazkur faoliyatni samarali boshqarishda qonunlarga qat'iy amal qilinishi adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 noyabrdagi «Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi PQ-4006-sonli qaroriga asosan 2019 yil 1 yanvardan e'tiboran, O'zbekiston Respublikasi IIV Jazoni ijro etish Departamenti Probatsiya xizmati va tegishli uchun hududiy bo'linmalari tashkil etilib uning asosiy vazifalari ichki ishlar organlarining ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish bo'yicha faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, shartli hukm qilingan va jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulqatvori ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshirish; nazorat ostidagilar, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga etmaganlarning ijtimoiy moslashuvi va ishga joylashishiga, shu jumladan, ularning kasbiy tayyorgarligi bo'yicha tadbirlarni tashkil etish orqali har tomonlama amaliy ko'maklashish; nazorat ostidagilarning qayta jinoyat sodir etish xavfini aniqlash va bunga yo'l qo'ymaslik bo'yicha profilaktik choratadbirlarni amalga oshirish, ularning shaxsini ijtimoiy-psixologik portretni tuzgan holda o'rganish belgilandi .

Shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 fevraldagi «Ichki ishlar organlari probatsiya xizmati faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida»gi 84-sonli





qaroriga asosan probatsiya bo'linmalarining nazorati ostidagi shaxslarga ijtimoiy-huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha vazirliklar va idoralar bilan hamkorlikdagi faoliyati mexanizmi yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimiz qonunchilik sohasida oshirilayotgan islohotlar jarayonida jinoyatlarning og'ir va o'ta og'ir turlariga nisbatan qarshi kurash choralari kuchaytirish bilan bir qatorda ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar sodir etgan shaxslarni jamiyatdan ajratmagan holda engilroq jazoga tortish va ijro etish siyosati ilgari surilmoqda. Mazkur jarayonlar esa Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishiga, uning natijasida og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar jumlasiga kiruvchi jinoyatlar sonini kamaytirilishiga, sodir etilgan jinoyatlar uchun aybdorlarga nisbatan shaxsni jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan muqobil jazo turlarini tayinlanishiga, yarashtiruv institutini joriy etilishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ushbu masalalarga e'tibor qaratib: "Fuqarolik, Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Jinoyat-ijro, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarni yangitdan qabul qilishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada, avvalo, tergov va sud amaliyotiga inson huquqlari sohasidagi ilg'or standartlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratish kerak", - deb ta'kidlab o'tdi.

Muxtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Miromonovich o'z maruzalarida shuni alohida takidladilarki "Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash – amalga oshiralayotgan barcha islohotlar samaradorligiga erishish, aholi turmish darajasini oshirish, mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqaror vaziyatni taminlashning asosiy kafolatidir", albatda bu gaplar bejizga aytilmagan. Aynan shuning uchun xam mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab islohotlarning mazkur yo'nalishiga alohida etibor qaratilganligi bejiz emas. Ana shunday yondashuv tufayli bu boradagi ishlarning samaradorligi keyingi yillarda nixoyatda kengayib yangi bosqichga ko'tarilganligini ko'p-ko'p misollarda ko'rish mumkin.

Mamlakatimiz qonunchilik sohasida oshirilayotgan islohotlar jarayonida jinoyatlarning og'ir va o'ta og'ir turlariga nisbatan qarshi kurash choralari kuchaytirish bilan bir qatorda ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar sodir etgan shaxslarni jamiyatdan ajratmagan holda engilroq jazoga tortish va ijro etish siyosati ilgari surilmoqda.

Mazkur jarayonlar esa Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishiga, uning





natijasida og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar jumlasiga kiruvchi jinoyatlar sonini kamaytirilishiga, sodir etilgan jinoyatlar uchun aybdorlarga nisbatan shaxsni jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan muqobil jazo turlarini tayinlanishiga, yarashtiruv institutini joriy etilishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev ushbu masalalarga e'tibor qaratib: "Fuqarolik, Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Jinoyat-ijro, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarni yangitdan qabul qilishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada, avvalo, tergov va sud amaliyotiga inson huquqlari sohasidagi ilg'or standartlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratish kerak", - deb ta'kidlab o'tdi. Profilaktika inspektorinining xizmat faoliyatining aynan bir yo'nalishi bo'lib ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga xukm etilgan shaxslar bilan ishlash xisoblanadi. Ushbu faoliyatni amalga oshirish davomida profilaktika inspektorlaridan juda katta bilim talab qilinadi sababi ushbu toifadagi shaxslar ijtimoiy xavflilik darajasining yuqori ekanligi hamda jazo tizimi va ijro etilish tartibining talablarini to'g'ri qo'llay olish zarur ekanligini bildiradi.

Profilaktika inspektorining ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga xukm etilgan shaxslar bilan ishlash faoliyatini shartli ravishda ikki yo'nalishga ajratish mumkin

Birinchi yo'nalish ularning ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga xukm etilgannida jazo shartlari va tartibini bajarishlari, jamiyatda o'rnatilgan qoidalarga rioya qilishlari ustidan nazorat xamda "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunga asosan yaakka tartibdagi profilaktik chora tadbirlarni amalga oshiradilar.

Ikkinchi yo'nalish ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga xukm etilgan shaxslarning jinoiy jazolarni o'tab bo'lganidan so'ng ularga nisbatan profilaktik xisob va ma'muriy nazorat yig'ma jildlarini yuritish orqali amalga oshiriladigan profilaktik chora tadbirlardan iborat.

Shu maqsadda Profilaktika inspektorinining ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga xukm etilgan shaxslar bilan ishlash faoliyati tushunchasini avvalo zarur atamalarni keyngi o'rinlarda esa butun bir sohani yoritish lozim.

Jazo- tushunchasiga huquqiy adabiyotlarimizda turli xil tarif berilgan bo'lib, shundan, eng maqbuli O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksning 42 moddasiga muvofiq, jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llaniladigan va mahkumni qonunda





nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir deb ta'rif berilgan

Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar-ushbu jumlaning ma'nosidan ham biz quydagi jazolarning jinoyat sodir etgan, sudning hukmi bilan aybdor deb topilgan shaxsning ozodliki tortib olinmasdan ma'lum bir majburlov choralari qo'llashi tushuniladi.

Profilaktika inspektori tomonidan qonun xujjatlariga binoan quydagi ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jinoiy jazolarga jazolarga hukm qilinga shaxslar bilan yakka tartibdagi profilaktika ishlari olib boriladi.

- Muayyan huquqdan mahrum qilish;
- Majburiy jamoat ishlari;
- Axloq tuzatish ishlari;
- Ozodlikni cheklash;
- Shartli hukm kilinganlar


O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 45-moddasiga asosan muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi sud tayinlagan muddat davomida aybdorning korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarda u yoki bu mansabni egallashini yoxud u yoki bu faoliyat bilan shug'ullanishini taqiqlashdan iboratdir. Ana shunday mansab yoki faoliyatning turi sud tomonidan ayblov hukmida ko'rsatiladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish aybdorning mansabi yoki ish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan jinoyatni sodir etganligi uchun asosiy jazo tariqasida tayinlanganda – bir yildan besh yilgacha muddatga, qo'shimcha jazo tariqasida tayinlanganda – bir yildan uch yilgacha muddatga belgilanadi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish yoki intizomiy qismga jo'natish jazosiga qo'shimcha jazo tariqasida tayinlangan bo'lsa, asosiy jazoning butun muddatiga, bundan tashqari sud hukmi bilan tayinlangan muddatga joriy etiladi. Bu jazo jarima, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari yoki xizmat bo'yicha cheklash jazolariga qo'shimcha jazo tariqasida tayinlanganda va mahkum shartli hukm qilinganda uning muddati hukm qonuniy kuchga kirgan vaqtdan boshlab hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 21- moddasiga asosan muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosi mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organi tomonidan amalga oshiriladi.

Sudning muayyan huquqdan mahrum qilish haqidagi qonuniy kuchga kirgan hukmi (ajrimi) mahkumni ichki ishlar organi hisobiga olish uchun asos bo'ladi. Ichki ishlar organi xodimi hukmni olgandan so'ng, shu kunning o'zida





mahkumni ro'yxatga olish kitobiga qayd qilib, unga nisbatan yig'majild yuritadi va hukm chiqarilgan sudga mahkumning hisobga olinganligi to'g'risida zudlik bilan xabarnoma yuboradi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 22-moddasida ichki ishlar organining majburiyatlari ko'rsatilgan, ya'ni:

- muayyan huquqdan mahrum qilingan mahkumlarni ro'yxatga oladi;
- mahkum ishlaydigan korxona, muassasa, tashkilot ma'muriyatiga yoki muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun berilgan ruxsatnomani bekor qilishga vakolatli organga hukm talablarini ijro etish to'g'risida xabarnoma yuboradi;
- mahkumning hukmda ko'rsatilgan taqiqlarga rioya etishini tekshiradi;
- mahkum ishlaydigan korxona, muassasa, tashkilot ma'muriyati, shuningdek muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun berilgan ruxsatnomani bekor qilishga vakolatli organlar tomonidan hukm talablari qanday bajarilayotganligini tekshiradi.

Mahkum harbiy yoki muqobil xizmatga chaqirilgan yoxud kirgan taqdirda ichki ishlar organi hukmning nusxasini mudofaa ishlari bo'limiga yoki mahkum xizmatni o'tayotgan joyga yuboradi.


Mahkum ishlaydigan korxona, muassasa, tashkilot ma'muriyati ichki ishlar organidan xabarnoma olgan kundan boshlab uch kun ichida quyidagilarni amalga oshirishga majbur:

- mahkum egallash va shug'ullanish huquqidan mahrum etilgan lavozimdan yoki mehnat faoliyati turidan uni ozod qilish;
- ichki ishlar organiga hukm talablari ijro etilganligi to'g'risida, tegishli hujjatlarni ilova etgan holda xabar yo'llash;
- mahkum boshqa ishga o'tkazilgan yoki u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan taqdirda, bu haqda ichki ishlar organiga xabar qilish (JIK 23-m.).

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 24- moddasiga ko'ra muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun berilgan ruxsatnomani bekor qilishga vakolatli organ ichki ishlar organidan xabarnoma olgan kundan boshlab uch kun ichida mahkum shug'ullanishi taqiqlangan faoliyat turi uchun berilgan ruxsatnomani bekor qilib, tegishli hujjatni olib qo'yishga va bu haqda ichki ishlar organiga xabar yo'llashga majbur.


Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsyasi. 2024 y. <https://lex.uz/docs/6445145>.





2. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майда қабул қилинган «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонуни. <https://lex.uz/docs/6445145>.
3. Таштемиров А., Курчибоев Ж. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 130-135.
4. Таштемиров А. А. и др. Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 25. – С. 32-40.
5. Мирсалихова Г. Ички ишлар органлари тезкор қидирув фаолияти тизимида амалга оширилаётган маъмурий-ҳуқуқий ислохотлар истиқболлари //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 10 Special Issue. – С. 214-217.
6. Тоштемиров А. А. Некоторые аспекты изучение модели управленческой деятельности в органах внутренних дел. – 2022.
7. Aliqulovich T. A., Atxam o'g'li M. X. Profilaktika inspektorining ommaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonidagi ishtirokining oziga xos xususiyatlari //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 24. – С. 230-235.
8. Mirsalixova G., Shodiyev S. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining o'ziga xos xususiyatlari //Development and innovations in science. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 160-168.
9. Тоштемиров А. Киберфирибгарлик билан боғлиқ жиноятларнинг пайдо бўлиш ва ривожланиш тарихи //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 11/S. – С. 95-102.
10. Таштемиров А., Хўжамбердиев А. Оила-турмуш муносабатлари доирасидаги ҳуқуқбузарликларнинг турлари ва таснифи //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 6. – С. 4-12.
11. Мирсалихова Г. Вояга етмаганлар томонидан содир этилган жиноятларга нисбатан белгиланадиган жавобгарликнинг ўзига хос жиҳатлари //Models and methods in modern science. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 78-86.
12. Таштемиров А., Комилов А. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар //Центральноазиатский





журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.

13. Таштемиров А., Юлдошев Х. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда оммавий ахборот воситалари ва блогерлар билан ҳамкорликнинг ўзига хос жиҳатлари //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 17. – С. 55-61.

